

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-fevral

RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 20470,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Toshkent shahrida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 112,9 % ga yetdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 632,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanishini belgilab beruvchi mezonga aylandi. Xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush sifatini, investitsion muhitni, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar bozor xizmatlarining 10,7 % ga oshishini ta'minladi. 2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 20470,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Xizmatlar tarkibida eng yuqori ulushni transport xizmatlari (30,7%), savdo xizmatlari (27,7%), moliyaviy xizmatlar (13,3%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7%) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar moliyaviy xizmatlar hajmini 29,7 % ga oshirish imkonini berdi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (127,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (117,2%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,9%), transport xizmatlarida (115,7%) kuzatilmoqda.

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (6276,0 mlrd.so'm), savdo xizmatlari (5669,8 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (2729,8 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (1365,5 mlrd.so'm) bo'yicha kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston bugungi kunda transportning mavjud barcha turlari va yo'nalishlari bo'yicha yuklarni va yo'lovchilarni tashishda mamlakat ihtiyojlarini ta'minlay oladigan ulkan transport imkoniyatlariga ega.

2018 yil yanvar-fevral oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da




Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (48,7%) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

Quvurlar orqali ko'rsatilgan transport xizmatlari transport xizmatlarining umumiy hajmida 17,5 % ni tashkil etadi. Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmining 16,4 % ni tashkil qiladi. Yuk va yo'lovchilarni havo transporti orqali tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 9,9 % ni tashkil etadi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 7,5 % ni tashkil qiladi.

Yuklarni va yo'lovchilarni tashishda avtomobil transporti muhim rol o'ynaydi. Hududlar o'rtasida avtomobil transporti xizmatlari hajmida eng yuqori ulushlar Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,8 %), Samarqand (11,7 %), Andijon (8,8 %), Farg'ona (9,2 %), Buxoro (7,3 %), Qashqadaryo (7,2 %) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Vaqt o'tishi bilan avtomobil transporti orqali tashishning ahamiyati ortib boradi, chunki u tezroq va ishonchli hisoblanadi hamda yuklarni yuqolishi va zarar yetish xavfi pastroq darajadali bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bir qancha tez buziladigan mahsulotlar va shoshilinch tovarlar uchun avtomobil transporti orqali tashuvlar yagona haqiqiy tashish usuli hisoblanadi. Shu sababli, avtomobil transporti O'zbekistondan eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik buyumlari va boshqa noxom-ashyo tovarlarni tashishning ma'qul vositasi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,7 % ga etdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (133,2 %), Navoiy (132,2 %), Toshkent (131,9 %), Jizzax (129,9 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (135,5 %) kuzatildi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining solishtirilishi, % da



Moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng past o'sish sur'ati Sirdaryo (113,1 %), Andijon (115,1 %), Buxoro (115,4 %), Namangan (116,4 %), Xorazm (117,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Jahon bozorining rivojlanish tahlili shuni ko'rsatmoqdaiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlar uchun yangi bozorlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirishga yordam beradi, pirovard natijada aholining turmush sifatini oshirishga erishiladi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar orasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida eng yuqori ulushlar Toshkent shahri (47,9 %), Farg'ona (6,8 %), Samarqand (6,6 %), Andijon (5,4 %), Namangan (4,7 %), Qashqadaryo (4,7 %) viloyatlariga to'g'ri keladi .

Ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish, o'qitish uslubiyatlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmini 687,6 mlrd.so'mga oshirish imkonini berdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi, % da



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasi (5,2 %), Toshkent shahri (4,4 %), Farg'ona (4,2 %), Buxoro (4,2 %), Sirdaryo (4,0 %) viloyatlarida kuzatildi. Bu oliy o'quv yurtlarida yuqori stavkali shartnomalar hisobiga xizmatlar hajmining oshganligi bilan izohlanadi.

Hududlar orasida eng katta hajm Toshkent shahrga (6474,5 mlrd.so'm) va Toshkent viloyatiga (1528,6 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.


Eng past hajm Sirdaryo (263,4 mlrd.so'm) va Jizzax (429,5 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	20470,7	110,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	607,7	107,0
viloyatlar:		
Andijon	1110,8	104,1
Buxoro	896,5	104,3
Jizzax	429,5	106,9
Qashqadaryo	983,5	104,5
Navoiy	529,8	111,2
Namangan	859,1	104,7
Samarqand	1390,4	105,9
Surxondaryo	763,7	105,0
Sirdaryo	263,4	105,8
Toshkent	1528,6	105,6
Farg'ona	1276,3	104,7
Xorazm	600,8	106,5
Toshkent shahri	6474,5	112,9

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.


2018 yil yanvar-fevral oylarida respublika bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da




Eng yuqori ulush Toshkent shahri (31,6 %), Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,8 %), Farg'ona (6,2 %), Andijon (5,4 %), Qashqadaryo (4,8 %) viloyatlarida qayd etildi.



Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida eng past ulushlarni Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,0%) egallaydi.



2018 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahrida - 2648,2 ming.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida - 307,0 ming so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Mas'ul: Q.Berdiqulov

(71) 230-80-59